

# Texnologiya ta'limi yo'nalishida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari

Muxarram Nurkamol qizi G'ulomova  
Toshkent davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarining texnologiya ta'limi yo'nalishida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning ilmiy-nazariy va pedagogik shart-sharoitlari va asoslari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Texnologik ta'lim, ilmiy-nazariy tayyorgarlik, ta'lim tizimi, pedagogik texnologiya, kompetentlik.

## Scientific and theoretical fundamentals of training teachers in the field of technology education

Muharram Nurkamol qizi Gulomova  
Tashkent State Pedagogical University

**Abstract:** This article describes the scientific, theoretical and pedagogical conditions and bases of training future teachers in the field of technology education in higher education.

**Keywords:** Technological education, scientific-theoretical training, education system, pedagogical technology, competence.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridayoq birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'lim tizimida erishilgan muvaffaqiyatlar va mavjud kamchiliklarni ob'ektiv tahlil qilib, kadrlar tayyorlashda tub islohotlarga ehtiyoj borligini isbotlab berdi. Shuningdek, I.A.Karimov o'z nutqida mazkur masalaning ijtimoiy zaruratini asoslab, "Fanga iste'dodli yoshlarning kirib kelishini ta'minlash uchun kompleks tadbirlar turkumini amalga oshirish zarur. Bu borada oliy maktabning, hatto, umumiy ta'lim maktablarining faoliyatini tubdan isloh qilish kerak", deya ta'kidlaydi.<sup>1</sup>

Darhaqiqat, mazkur masalalarni hal etish respublikamizdagi mavjud ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish orqali yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish maqsadini nazarda tutadi. Shunday ekan, barkamol shaxsni tarbiyalash, uni mutaxassis sifatida shakllantirish, jamiyatda

---

<sup>1</sup> Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. B– 84.


munosib kasbiy-ijtimoiy statusga ega bo'lishida oliy ta'limi muassasalarining o'rni katta.

Oliy ta'lim muassasalari va ulardagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-monitoringini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi.

Rivojlangan mamlakatlar, xususan, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Shveysariya, Germaniya, Malaziya, Kanadaning mutaxassilar tayyorlash bilan bog'liq tajribasi shuni ko'rsatadiki, Texnologik ta'limning asosiy vazifasi talabalarda tanlangan mutaxassislikning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda intellekt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat bo'lib, mazkur vazifani bajarish asosida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi ta'minlanadi. Bunda texnologik tayyorgarlikning asosiy mezonlari sifatida bo'lajak mutaxassisning faoliyatga amaliy tayyorgarligi va ixtisoslik doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish, kasbiy faoliyat talablariga moslashish darajasi belgilanadi.

Darhaqiqat, kasbiy tayyorgarlik mutaxassisning butun faoliyati davomida ma'naviy-axloqiy hamda kasbiy sifatlarining yanada takomillashishi, kasbiy kompetentlikning shakllanishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini ifodalaydi. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarni kasbiy moslashtirishni shakllantirishning ahamiyatli jihatlaridan biri bu jarayonga tizimli yondashuv tamoyilidir.

Ma'lumki, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini metodik tayyorlashda tizimlilik muhim ahamiyat kasb etadi. Tizim bu - o'zaro bir-biri bilan munosabatda bo'ladigan obyektlar va ularning xossalari majmuidan iborat. Ilmiy bilish nuqtai nazaridan "tizimlilik" avvalo, inson faoliyatiga xos hodisa sifatida qaraladi. Buni N.Muslimov o'z tadqiqotida quyidagicha tasvirlaydi: (1.rasm):



*1-rasm. Tizimlilik aks etuvchi inson faoliyati turlari*

Texnologik ta'limda tizimli yondashuv - ilmiy bilish hamda ijtimoiy amaliyot metodologiyasining yo'nalishi bo'lib, uning asosida ob'ektlarni tizim sifatida qabul qilinishi yotadi. Tizimli yondashuv tadqiqotchini ob'ekt yaxlitligini ochib berishga, uning aloqalari turli tiplarini aniqlashga hamda ularni yagona nazariy ko'rinishga keltirishga yo'naltiradi.

Pedagogik tadqiqotlarda texnologik ta'lim jarayonida qo'llanilishini T.A.Ilina, M.Ochilov, N.A.Muslimov, J.A.Hamidov tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin tizimli yondashuv asosida ta'lim oluvchilarda faoliyatni o'zi tashkil etish va rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Talabaga ta'lim berish va uni tarbiyalashga sinergetika tamoyillari nuqtai nazaridan yondashishda quyidagi g'oya ilgari suriladi: talabada shakllanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikma nafaqat o'qituvchining maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyati asosida, balki o'qituvchi yordamida uning o'z faoliyatini o'zi tizimli tashkil etishi orqali ham shakllanadi. Ta'lim tizimiga tizimli yondashuvni tadqiq etish tajribalarini pedagog-olimlardan S.T.Turg'unovning tadqiqotlarida ham ko'rish mumkin. Uning ta'kidlashicha, yaxlit ta'lim jarayonini rivojlantirishda tizimli yondashuv, refleksiv yondashuv, shaxs-faoliyat yondashuvi, vaziyatli yondashuv, muvofiqlashtirilgan yondashuv, natijalar bo'yicha boshqaruv muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jarayonlarning yaxlit tizim sifatida bir-biriga bog'liq hodisalarning sabab va oqibatlari tarzida rivojlanishini K.Zaripov o'z tadqiqotlarida e'tirof etgan.

Texnologik ta'limda ta'lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik hodisalar ma'lum qonuniyatlar asosida o'zaro bog'liq bo'ladi. Ularni bilish ta'lim-tarbiyaning ilmiy asoslarini egallash uchun juda muhimdir. Har bir pedagogik hodisa ma'lum sabablarga ko'ra vujudga kelib, muayyan natijaga olib keladi. U yoki bu pedagogik jarayon yoki hodisani keltirib chiqargan sabablarni aniqlash, ularni faqat bilibgina qolmasdan, ijobiylarining ta'siridan foydalanish, salbiylarining oldini olish imkoniyatini beradi. Natijada pedagogik jarayonni ilmiy asosda boshqarish imkoniyati kuchayadi. Pedagogik jarayonlarning mohiyatini chuqur anglash, ularni tizimli tadqiq qilish pedagogik jarayon va qonuniyatlarini alohida va yaxlitlikda o'rganishni zaruriyatga aylantirdi.

Pedagogik holat o'z xususiyatiga ko'ra katta miqdordagi turli hil ta'sir va nufuzlarga uchraydigan murakkab holat hisoblanadi. Bu holat va ta'sirlarning bir qismini boshqarish mumkin, ob'ektiv mavjud bo'lgan boshqalari esa quyidagi tizimning boshqaruv markazi ta'siriga aloqador bo'lmaydi, lekin shu bilan birga tizimli yondashuvni amalga oshirishda ularni inobatga olish lozim. Masalan, o'quv jarayoni ko'pgina tashkil etuvchi o'zaro faoliyatdagi tizim sifatida ko'pgina omillar ta'siriga uchraydi, bular: jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, ishlab chiqarish kuchining rivojlanish darajasi. Ular ko'rib chiqilayotgan tizimning boshqaruv markazining ta'siriga berilmaydi, lekin ularning ta'sirini albatta inobatga olish lozimdir, chunki bu

omillar ta'lim va tarbiya jarayonida ta'lim maqsadi, mazmuni va usullarini tanlash uchun omil bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik faoliyat natijasini nihoyatda aniqlik bilan hisoblash juda mushkul, chunki pedagogik tizim ko'p sonli va nohiziqiy bog'lanishlardan iborat. Ta'lim tizimini o'z-o'zini tashkil etishga qodir ochiq turdagi tizim sifatida qarab, natijalarning nisbiyligini e'tiborga olish va ta'lim jarayonini tashkil etish mazmuni, shakli va metodlarini tanlashda, eng muhimi, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda bir tomonlama qarashlardan voz kechish zarur. Bizning nazarimizda, texnologik ta'limda tizimli yondashuv ta'lim tizimini boshqarishning metodologik asosi hisoblanadi. Undan foydalanish ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni - obyektga tizimli yondashuv, uning yaxlitligini ochib berish, tashkil etuvchilari (komponentlari) o'rtasidagi aloqalarini aniqlash, amalga oshirish shartlarini aniqlash, bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini tizimli yondashuv asosida tayyorlashda muammoli ta'lim metodlarini qo'llash masalalarini yoritish muammosi tadqiqot ishimizning navbatdagi vazifasi etib belgilandi.

Texnologiya o'qituvchilarini tizimli yondashuv asosida tayyorlash muammosiga kasbiy-pedagogik bilimlarni o'zlashtirishning barcha tomonlarini, ya'ni mazmuni, shakli, metod va vositalari, kasbiy faoliyatni tashkil qilish yo'llari, ta'lim natijalarining monitoringi, ta'lim sifatini baholash va boshqarishni qamrab oluvchi integrativ jarayon sifatida qarash mumkin. Bunda texnologik ta'limning asosiy tarkibiy tashkil etuvchilarini integratsiyalash (kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish), shaxsga yo'naltirilgan aksiologik-rivojlantiruvchi (ijodiy faoliyat tajribasi asosida) va tarbiyalovchi vazifalarining (haqiqatga his-qadriyatli munosabat asosida) birligini ta'minlaydi.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash sifati asosan ta'lim tizimining samaradorlik ko'rsatkichiga bog'liq bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ❖ ta'limga tizimli yondashish ko'lam va muqobilligi;
- ❖ ta'limning ko'rgazmaliligi, o'qituvchi tushuntirishlarining aniq va maqsadga yo'naltirilganligi;
- ❖ hamkorlikda o'qitish texnologiyasining sifati (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi).

Jamiyat rivojlanib, yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan ijtimoiy talablarning ortib borishi pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimida ham mazmuniy va sifat jihatidan o'zgarishlar zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu muammoning dolzarbligini ta'kidlab, prezidentimiz I.Karimov "Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarni ma'naviy dunyosini shakllantirishda o'qituvchi mehnatini qanchalik muhim o'rin tutishini yaxshi bilamiz.

Chunki, o'qituvchi nainki sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki minglab murg'ak qalblarga ezgulik yog'dusini, hayot maktabini uqtiradigan mo''tabar zotdir" degan edi. Shuning uchun ham bozor munosabatlari sharoitida oliy ma'lumotli pedagog kadrlarga bo'lgan jamiyat talablaridan kelib chiqib, malakali mutaxassislar tayyorlash zarurati yanada kuchaydi. Tadqiqot muammosining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish, olib borilgan kuzatishlar va tahlil natijalari OTMLaridagi o'quv-tarbiya jarayoni bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayonida katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Ammo mazkur jarayonga bir tomonlama yondashish mutaxassislarning sifat darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganligi ham amaliyotda tasdiqlandi. Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonini ijtimoiy talablar, demokratik tamoyillar, shuningdek ishlab chiqarishning mutaxassis shaxsiga qo'yayotgan malakaviy talablaridan kelib chiqib modernizatsiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azizxo'jayeva N.N "Pedagogik texnologiyava pedagogic mahorat" T.: 2003.
2. Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.–T.: Sharq, 1997.
3. Ibragimova X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika. O'quv qo'llanma,-T.: Fan, 2005.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.–T.: 2003.
5. Shakhlo Kharratova "USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS" Science and Education ISSUE 3, March 2022;
6. G'afforova T. va boshqalar. Ta'limning ilg'or texnologiyalari.–Qarshi Nasaf, 2003.